

GENDER TENGLIGI: JAMIYATDA GENDER TENGLIGIGA ERISHISH

Xusanova Dilafruz Xusanboy qizi, 3-bosqich talabasi

Fozilov Asror Akmal o'g'li JDPU, 3-bosqich talabasi

asrorfozilov794@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola butun dunyoda Gender tenglik zarurligi, hozirgi global o'sish davrida ba'zi bir davlatlarda ushbu atamani faqat bir tomonlama talqin qilishning salbiy tomonlari va tushunchaning to'liq ta'rifi, shuningdek O'zbekistonda gender teng jamiyatni qurishdagi asosiy e'tibor va ko'rsatkichlar keltirib o'tiladi. UNICEF tomonidan ishlab chiqilgan dasturlar va xalqaro statistika ma'lumotlari berilgan.

Kalit so'zlar: Gender tenglik, gender farqlar, UNICEF tomonidan ishlab chiqilgan dasturlar, yangi qonunlar.

Gender tenglik - ayollar va erkaklar teng sharoitlar yaratilsa, teng munosabatga kirishilsa va teng imkoniyatlarga ega bo'lganda gender tengligiga erishiladi. Bu ayollar va erkaklarga o'z qobiliyatini ko'rsatish, inson huquqlari va uning qadrini qiymatini to'liq namoyon chiqarish imkonini beradi; o'z jamiyatlarining iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va siyosiy rivojlanishiga o'zining hissasini qo'shish; va bunday rivojlanishning afzalliklarga erishiladi. Gender tengligi ikki xil jinsning uyda va jamiyatda teng huquqlar va imkoniyatlarga ega bo'lishiga asoslanadi. Bu adolatli bo'lish jarayoni va gender tengligiga erishish vositasi hisoblanadi.

BMT tashkiloti ro'yxatida gender tengligini ta'minlash ayollar va qizlarning huquqlarini erkaklar va ayollar o'rtasida teng huquq va teng imkoniyatlarni ta'minlash masalalari quyidagi asosiy xalqaro hujjatlarda o'z aksini topgan, bular: Atrof muhit va rivojlanish bo'yicha Rio-de-Janeyro Deklaratsiyasi (Rio Deklaratsiyasi, 1992 y.), Aholishunoslik va rivojlanish bo'yicha Qohira konferensiyasi (1994), Xotin-qizlar ahvoli bo'yicha Pekin konferensiyasi (1995) va Inson manzilgohlari bo'yicha Istanbul konferensiyasi (1996). Bular – Umumjahon inson huquqlari Deklaratsiyasi, «Xotin-qizlarga nisbatan zo'ravonlikning barcha shakllariga barham berish to'g'risida»gi Konvensiya, Mingyillik rivojlanish maqsadlari va boshqalar. BMTga a'zo-davlatlar uchun ayollar va erkaklar tengligini ta'minlashga doir milliy majburiyatlarni to'liq bajarish Ming yillik rivojlanish maqsadlariga erishish va BMT tamoyillarini qo'llab-quvvatlashga munosib hissa qo'shish demakdir.

Shuningdek davlatimizda ham bu sohada keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda. Xususan 2023-yil 1- may sanasidan kuchga kirgan kirgan O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasining 78 – moddasida ayollar va erkaklar huquqlari quyidagicha muhofaza etilishi belgilab qo'yilgan:

“Farzandlar ota-onasining nasl nasabi va fuqarolik holatidan qat'iy nazar qonun oldida tengdirlar.

Bolaning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash hamda himoya qilish, uning jismoniy, aqliy va madaniy jihatdanto'laqonli rivojlanish uchun eng yaxshi shart sharoitlarni yaratish davlatning majburiyatidir.

Onalik, otalik va bolalik davlat tomonidan muhofaza qilinadi.

Davlat va jamiyat bolalarda hamda yoshlarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlikni, mamlakatidan hamda xalqning boy ma'daniy merosidan faxrlanishni, vatanparvarlik va Vatanga bo'lgan mehr-muhabbat tuyg'ularini shakllantirish to'g'risida g'amxo'rlik qiladi"

Gender tengligi tushunchasini qoralovchilar buni imkonsiz iloji yo'q narsa deb bilishadi, chunki „erkak va ayol bir-biridan farq qiladi va nafaqat jismoniy balki ruhiy jihatdan ham chunki agarda ayollarni ham erkaklar qiladigan ishni bajarishni majbur qilsa, ular o'zlarining sevimli mashg'ulotlari ya'ni bolalarga g'amxorlik qilish, dokon aylanish, yuzlarini kosmetika bilan bo'yash, turli xil taomlar pishirish kabi mashg'ulotlarini bajarolmay qolishadi natijada ular baxtli bo'la olishmaydi. Agarda ayollar jamiyatda faqat erkaklar ishini bajarishsa: o'tin kesish, mashinalarni ta'mirlash, buldozer haydash ular ham ruhan ham jismonan zo'riqishga uchrashadi deb fikr bildirishadi. Biroq, gender tengligi nazariyasining tarafdorlari, bu fikr ko'p avlodlar davomida patriarxal davri davom etganligi va insonlarning ilmga qarshi ta'limotlar, stereotiplar va jamoatchilik fikrlarini idrok etishiga katta ta'sirga ega deb ta'kidlaydilar. Ba'zi psixolog va sotsiologlarning fikriga ko'ra zamonaviy jamiyatda psixika, harakter, xulq-atvor va fikrlash uslubi jinsga bog'liq degan fikr keng tarqalgan. Tenglik tushunchasini tanqid qiluvchilar, umuman tushunchaning mohiyatini tan olsalar-da, unga yana bir ta'rif berishadi: Gender tengligi - bu ayolning ayol sifatida, erkak esa erkak sifatida rivojlanish imkoniyatidir deb fikrlashadi.

Shuningdek gender tengligi haqida UNICEF tomonidan ishlab chiqilgan ishchi dasturlar mavjud. Bular:

1. Gender diriminatsiya - Bu dastur ikkala jinsni ham afzal ko'radi bu esa tengsizlikning chuqurlashishiga olib kelishi mumkin

2. Jinsiy ko'rlik dasturi - Dasturlash jinsni e'tiborsiz qoldiradi, status-kvonni saqlab qolishi yoki tengsizlikni kuchaytirishi mumkin.

3. Gender sezgir dasturi - Tengsizliklarni tan oladi lekin jiddiy hal qilmaydi.

4. Gender responsive dasturi - Qizlar va o'g'il bolalar, ayollar va erkaklarning turli ehtiyojlarini aniqlaydi va hal qiladi, hamma uchun teng natijalarga erishishga yordam beradi.

5. Gender transformativ - Gender tengsizliklarini bartaraf etishga, tizimli to'siqlarni olib tashlashga va nochor aholining imkoniyatlarini kengaytirishga aniq intiladi.

Gender tengligini singdirish tizimli yondashuv va uzoq muddatni talab qiladigan jarayon. Uni ta'limning faqatgina ma'lum bir qismida yoki faqatgina oila instituti orqali singdirish mumkin emas. Shuning uchun ham ijtimoiy ongda gender bilan bog'liq sog'lom dunyoqarashni shakllantirishda oila-mahalla-ta'lim tizimining o'zaro hamkorligini ta'minlash dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Shunday qilib, mustaqillik yillarida respublikada qonunchilik va ijro etuvchi organlar darajasida huquqiy, tashkiliy, moliyaviy-iqtisodiy, ijtimoiy va boshqa sohalarda ayollar va erkaklar tengligiga oid konstitutsiyaviy printsipni ta'minlashga qaratilgan ayollar va erkaklarga nisbatan davlat siyosatini amalga oshirish uchun progressiv va ishonchli baza yaratilgan. Ayollar va erkaklar tengligi madaniyatini shakllantirish – bu tizimli va doimiy jarayon bo'lib, keng

jamoatchilik va fuqarolik institutlari bilan hamkorlikni talab etadi. Bu borada jamiyatning barcha jabhalari – davlat tuzilmalari, jamoat tashkilotlari, biznes sub`ektlari, kasaba uyushmalari va keng aholi qatlamlarining birgalikdagi va hamjihatlikdagi faoliyati muhim ahamiyat kasb etadi. Alohida sa`y-harakatlar ayollar va erkaklar xulq-atvoriga doir ijtimoiy va madaniy modellarni o`zgartirishga, omma ongida ayollar va erkaklarning jamiyatdagi roliga doir eskicha qarashlarni bartaraf etishga qaratilishi kerak.

Lekin gender tengligidan noto`g`ri tushunish noto`g`ri anglash jamiyatda ajrashishlar sonining ko`payishiga olib kelishi mumkin. Sababi shundaki milliy urf-odatlar mentalitetimizga gender tengligining ayrim jihatlarining mos kelmasligi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki ayollar va erkaklar tengligi madaniyatini shakllantirish – bu tizimli va doimiy jarayon bo`lib, keng jamoatchilik va fuqarolik institutlari bilan hamkorlikni talab etadi. Bu borada jamiyatning barcha jabhalari – davlat tuzilmalari, jamoat tashkilotlari, biznes sub`ektlari, kasaba uyushmalari va keng aholi qatlamlarining birgalikdagi va hamjihatlikdagi faoliyati muhim ahamiyat kasb etadi. Jamiyat barcha qatlamlarining maqsadli faoliyatini tashkil etish zarur gender-dezagratsiyalangan axborot bazasini yaratish, barcha hududlar darajasida gender vaziyatining gender tahlili va monitoringini o`tkazishni talab etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O`zbekiston Respublikasi yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi 78 – moddasi 18-bet 2023-yil 1 –may yangi tahriri.
2. Munisa Zokirjonova “Jamiyatga gender tenglik nima uchun kerak? “. Birlashgan Millatlar "Science and Education" Scientific Journal / ISSN 2181-0842 March 2022 / Volume 3 Issue 3 www.openscience.uz 505
3. UNICEF foundation of gender-transformative Approaches <https://cutt.ly/6hatOke>
4. Alimov Sardor Komil o`g`li -GENDER TENGLIK TAMOYILINI SINGDIRISHDA “OILAMAHALLA-TA`LIM TIZIMI”NING O`RNI Academic Research, Uzbekistan 542 www.ares.uz
5. Ibrohim Shuxratovich Fayziyev “Gender tengligi: ayollarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish” ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES VOLUME 2 | ISSUE 2 | 2021 ISSN: 2181-1385 Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
6. “Xotin qizlar va erkaklar teng huquq hamda imkoniyatlari kafolatlari to`g`risida”gi qaror (02.09.2019.).
7. Qodirova, M., & Raxmonov, A. (2023). O`SMIRLARGA XOS NIZOLI VAZIYATLAR VA ULARNING PSIXOLOGIK TAHLILI. *Журнал Педагогика и психологии в современном образовании*, 3(2). извлечено от <https://phys-tech.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/8465>
8. Qodirova, M., & Nasimov, D. (2023). PSIXOLOGIYADA QO`RQUV MUAMMOSINING ILMIY TADQIQ ETILISHI .*Журнал Педагогика и психологии в современном образовании*, 3(1). извлечено от <https://phys-tech.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/7725>

9. Qodirova, M. (2023). DEVELOPMENT OF COGNITIVE ACTIVITY OF PRESCHOOL CHILDREN. *Science and innovation*, 2(B4), 258-261.
- Qodirova, M. (2022). ZIGMUND FREYD KONFLIKTDAN XIMOYALANISH MEXANIZMLARI HAQIDA. *Eurasian Journal of Social Sciences, Philosophy and Culture*, 2(12), 159-164.
10. Malikaxon Qaxramonovna, Q. (2022). TAFAKKURINING RIVOJLANISHIDA MULOQOTNING O'RNINI VA AHAMIYATI. *Scientific Impulse*, 1(3), 665–669. Retrieved from <http://nauchniyimpuls.ru/index.php/ni/article/view/1105>
11. Qodirova Malika, & Imomqulova Fotima. (2022). CAUSES OF DISPUTES BETWEEN PARENTS IN FAMILY. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 3(02), 675–678. <https://doi.org/10.17605/OSF.IO/HAB4U>
12. Кодирова Малика Кахрамоновна РОЛЬ ПОЗНАВАТЕЛЬНЫХ ПРОЦЕССОВ В ФОРМИРОВАНИИ И РАЗВИТИИ ПОЗНАНИЯ У ДЕТЕЙ 6-7 ЛЕТ // Евразийский Союз Ученых. 2020. №10-1 (79). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/rol-poznavatelnyh-protsessov-v-formirovanii-i-razviti-poznaniya-u-detey-6-7-let> (дата обращения: 30.04.2023).
13. Qodirova, Malikaxon Qaxramonovna, Nasimov, Doston Sobir O'G'LI MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR IDROKINI IJODIY O'YINLAR ORQALI RIVOJLANTIRISH // ORIENSS. 2022. №2. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/maktabgacha-yoshdagi-bolalar-idrokini-ijodiy-o-yinlar-orqali-rivojlantirish> (дата обращения: 30.04.2023).
14. Adilova, M. (2023). THE PSYCHOLOGICAL EFFECT OF TRAPS IN THE SOCIAL NETWORK ON YOUTH MIND AND SPIRITUALITY. *Open Access Repository*, 4(2), 500-505.
15. Komilova, A., & Adilova, M. (2023). SHAXS EMOTSIONAL INTELLEKTINING PSIXOLOGIK VA PSIXOFIZIOLOGIK JIXATLARI. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, 3(2).
16. Komilova, A., & Adilova, M. (2023). AGRESSIYA–OSMIRLARDA YUZAGA KELADIGAN TAJOVUZKORLIK RIVOJLANISHIGA TASIR ETUVCHI FENOMEN SIFATIDA. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, 3(1).
17. Muratovich, M. E., Kurbon, O., & Shamsiyevna, A. M. (2022). Some features of the formation of mathematical representations in preschoolers in the process of familiarizing them with the size and shape of objects.
18. Umdjon, Y., & Madina, A. (2023, April). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLADA O 'ZINI-O 'ZI ANGLASHDA OILANING ROLI. In *E Conference Zone* (pp. 11-16).
19. Umdjon, Y., & Madina, A. (2023, April). PROFESSIONAL MOTIVATION AND ITS STRUCTURE IN THE MANAGEMENT PROCESS. In *E Conference Zone* (pp. 11-16).
20. Madina, A., & Lobar, R. (2023). HUQUQIY ONG TUSHUNCHASINI O'RGANISHNING NAZARIY JIHATLARI. *International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research*, 375-379.

- 21.Madina, A., & Donoxon, M. (2023). OILADA YOSHLARNI TOLERANT MADANIYATLI QILIB TARBIYALASH VA IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK OMILLAR. *International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research*, 353-358.
- 22.Madina, A. (2023). BOLALARDA AHLOQIY FAZILATLARNI PSIXOLOGIK SHAKLLANTIRISH USULLARI. *International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research*, 340-345.
- 23.Shamsidinovna, A. M. (2023, May). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA 12.AHLOQIY JIHLARNI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK JARAYONLARI. In *E Conference Zone* (pp. 6-12).
- 24.Shamsidinovna, A. M. (2023, April). MAKTAB O'QUVCHILARINING INDIVIDUAL-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARINI O'RGANISHNING AHAMIYATI. In *E Conference Zone* (pp. 1-5).
- 25.Norbekova, B. S. (2016). YOSH VA O 'TISH DAVRI XUSUSIYATLARINING PEDAGOGIK QAROVSIZ O 'SMIRLAR KELIB CHIQUISHIGA TA'SIRI. The edition is included into Russian Science Citation Index., 77.
- 26.Норбекова, Б. 2021. Духовное воспитание - как основа психологического воспитания. Общество и инновации. 2, 10/S (ноя. 2021), 105–109. DOI:<https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol2-iss10/S-pp105-109>.
- 27.Shavkatovna, N. B. (2022). AXBOROT TEXNOLOGIYALARI BILAN ISHLOVCHI SHAXSLARNING PSIXOLOGIK XOLATINING PATOLOGIYASI. *International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research*, 658-662.
- 28.Norbekova, B. (2022). O'roqboyeva M. Maktabgacha ta 'limda psixologik xizmatni tashkil etishning o'ziga xos jihatlari. Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollar, 1(1), 481-483.
- 29.Alibekov, D. (2020). Socio-philosophical basis of educational system development. *ISJ Theoretical & Applied Science*, 10 (90), 24-26. SoI: <http://s-o-i.org/1.1/TAS-10-90-6> Doi: <https://dx.doi.org/10.15863/TAS.2020.10.90.6>
- 30.Alibekov D. SOTSIALNO-FILOSOFSKIE OSNOVY RAZVITIYa SISTEMY OBRAZOVANIYa //Jurnal muzyki i iskusstva. – 2021. – T. 2. – №. 2.
- 20.Farsakhanova, Dilafroz, and Davron Alibekov. "Technology to improve the quality of education based on educational values." *Arxiv Nauchnykh Publikatsiy JSPI* (2020).
- 31.Alibekov, Davron. "Sharq mutafakirlarining ta'lim-tarbiya borasidagi qarashlari." *Jurnal muzyki i iskusstva* 2.1 (2021).
- 32.Alibekov, D., & Abduraqibova, D. (2023). TA'LIM TIZIMINING STRATEGIK RIVOJLANISHIDA INNOVATSIYALARNING AHAMIYATI. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, 3(1). извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/7730>
- 33.Alibekov, D. (2023). JAMIYAT TARAQQIYOTIDA TA'LIM TIZIMIGA INNOVATION YONDASHUVNING STRATEGIK AHAMIYATI. *Журнал*

Педагогика и психология в современном образовании, 3(3), 168-173.
извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/9137>